

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-3, ISSUE-01

KURSANTLAR MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH
YO'LLARI

B.S.Qurbonov

Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada favqulodda vaziyatlar yo'nalishi kursantlarida muloqot madaniyatini shakllantirish, muloqot jarayonida kommunikativ madaniyat, ularning asosiy vazifalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *muloqot, kommunikativ, kommunikativ ko'nikma, affektiv-kommunikativ, perseptiv, regulyativ.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о формировании культуры общения среди курсантов, участвующих в операциях в чрезвычайных ситуациях, о культуре общения в процессе коммуникации и об их основных задачах.*

Ключевые слова: *коммуникация, коммуникативный, коммуникативные навыки, аффективно-коммуникативный, перцептивный, регулирующий.*

Abstract: *This article provides information about the formation of a culture of communication among emergency situations cadets, communicative culture in the communication process, and their main tasks.*

Key words: *communication, communicative, communicative skills, affective-communicative, perceptive, regulatory.*

Muloqot kishilarning birgalikdagi faoliyatining muhim shartlaridan biri bo'lib, kishilar o'rtasidagi o'zaro axborot almashish jarayoni sanaladi. Bu insonning tabiiy ehtiyojdir, chunki odamlar bir-biri bilan gaplashmasdan, axborot almashmasdan yashay olmaydilar. Muloqot jarayonida shaxs o'z fikrini adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda, aniq, ravon va tushunarli tarzda bayon etishi, suhbatdoshning fikrini diqqat bilan tinglashi, uning shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilishi, ohang va so'z tanlashda vaziyatni hisobga olishi hamda har bir aytilgan so'zning ijtimoiy-axloqiy ta'sirini anglab yetishi lozim [1].

Muloqot tufayli kishilar bir-birini tushunadilar, mehnat jarayonida hamkorlikka, hamjihatlikka erishadilar, o'zaro fikr va tajriba almashadilar.

Inson uchun bilim, ko'nikma va malakalar qanchalik hayotiy zarurat bo'lsa, muloqot madaniyatini egallash ham shunchalik zarurdir. Chunki muloqot madaniyati kishining yetuklik, komillikka erishganlik belgisi hisoblanadi. Muloqot madaniyatini egallash, ayniqsa, bo'lg'usi favqulodda vaziyatlar xodimlari uchun ahamiyatlidir.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-3, ISSUE-01**

Chunki ularning faoliyati hamisha xalq bilan muloqotga kirishishni, o'zaro munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Bugungi kunda oliy ta'limni tamomlab keyingi faoliyatga yo'llanma olayotgan barcha kursantlar, muloqot madaniyatini puxta egallagan, o'z fikrini boshqalarga erkin bayon qila oladigan, sof adabiy tilda so'zlaydigan mutaxassislar bo'lib yetishyapti, deb ayta olmayamiz. Kursantlarda muloqot madaniyati oliy ta'limning ajralmas qismi, eng muhim vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

Muloqot madaniyatini anglash kishilar o'rtasidagi muloqot jarayonining borishini ta'minlovchi, ijtimoiy me'yorlarga muvofiq o'ziga xos insoniy xulq-atvorni o'z ichiga oladi. Muloqot odamlarning jamoaviy va guruh faoliyatida kommunikativ va asosiy rol o'ynaydi. Muloqotning mazmuni va shakli uning tarkibiga kiradigan muayyan faoliyat bilan belgilanadi.

Ma'lumki, madaniyatni aniqlashning eng muhim mexanizmi tildir. Biroq zamonaviy jamiyatda unga xalqning taqdiri, tafakkuri va intilishlarini aks ettiruvchi tirik organizm sifatida ham, boshqa millat vakillari bilan tolerantlik munosabatlari o'rnatishni biladigan ma'naviy boy shaxsni shakllantirish vositasi sifatida ham qarash kerak. Qolaversa, muloqot jarayonida foydalaniladigan vositalar, usullar madaniyat mahsuli ekanligini unutmash kerak. Muloqot madaniyati muloqot amalga oshiriladigan deyarli barcha xatti-harakatlar usullarini o'z ichiga oladi: nutqni shakllantiradigan va rivojlantiradigan so'zlar, nutqning dinamik xususiyatlari, intonatsiya, imo-ishoralar, mimika, pantomima va boshqalarni odamlarning shaxslararo tushunishi hamda o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan vosita deb qabul qilish mumkin [1]. Psixologlarning ta'kidlashicha, kattalar bilan og'zaki muloqot insonning atrofidagi dunyoni o'zlashtirishi uchun ham, fikrlash usullarini o'zlashtirishi uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Og'zaki o'zaro ta'sir nutqiy muloqot qobiliyatlari yordamida amalga oshiriladi, bu esa o'z navbatida nutq faoliyat orqali rivojlanadi va takomillashtiriladi.

Bo'lajak xodim faoliyatida muloqot **axborot uzatish, tarbiyalash, o'qitish, emotsional ta'sir ko'rsatish, faoliyatga undash** kabi vazifalarni bajarish zarur. Muloqot jarayonida turli xil kommunikativ ta'sirlar amalga oshiriladi, chunki xodim doimo **ishontirish, asoslab berish, chaqirish, talab qilish, ruhiy ta'sir o'tkazish, qiziqtirish** kabi vositalarga murojaat qiladi.

Agar bo'lajak xodim eng kichik kommunikativ ko'nikmalarga va **kommunikativ madaniyatga** ega bo'lmasa, u holda muloqot jarayoni ham, uning natijalari ham **samara bermasligi** ehtimoldan holi emas.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-3, ISSUE-01**

Kursantlarning kommunikativ madaniyati ularning **kasbiy muloqot jarayonida, ya'ni kommunikativ faoliyatida** namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda muloqotning quyidagi asosiy vazifalari mavjud:

1. **Axborot-kommunikativ vazifasi** – suhbatdoshlar o'rtasida ma'lumot almashinuvi;

2. **Kommunikativ vazifasi** – muloqot ishtirokchilarining o'zaro harakatlarini tashkil etish va boshqarish;

3. **Affektiv-kommunikativ vazifasi** – hissiy-ruhiy ta'sir ko'rsatish va his-tuyg'ularni uzatish.

Shuningdek, muloqotda quyidagi **komponentlar** ham farqlanadi: **kommunikativ** – axborot almashish; **interaktiv** – muloqot ishtirokchilarining o'zaro harakatlarini tashkil etish; **perseptiv** – muloqotda ishtirokchilarning bir-birini idrok etish va ushbu asosda o'zaro tushunishni shakllantirish. Muhim jihati shundaki, bu funksiyalar muloqot jarayonida **bir vaqtda** ro'y beradi.

Perseptiv komponent – suhbatdoshni psixologik mexanizmlar (taqqoslash, identifikatsiya, appersepsiya, refleksiya) orqali tushunish va anglashni o'z ichiga oladi. Muvaffaqiyatli faoliyat uchun bo'lajak xodimda quyidagi bilim, ko'nikma va malakalar majmuasiga ega bo'lishi lozim:

- ijrochi roli – faoliyat samaradorligini ta'minlash;
- administrator roli – odamlar faoliyatini tashkil etish va belgilangan muddatlar hamda tartibga rioya qilinishini nazorat qilish;
- ijodkor (yaratuvchi) roli – muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish;
- lider roli – jamoani birlashtira olish, ularni umumiy maqsadlarga yo'naltirish [2].

Kursant uchun nutqqa egalik qilish – ya'ni aniq, ta'sirli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda fikrni ifodalash – muhim kasbiy shartlardan biri sanaladi. Chunki nutq nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki emotsional ta'sir ko'rsatish, tarbiyalash va faoliyat jarayonida qo'l ostidagilarda til madaniyatini shakllantirish vositasidir.

Xulosa qilib aytganda, muloqot madaniyati shaxsning ma'naviy kamoloti, ijtimoiy faolligi va kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir. To'g'ri va samarali muloqot o'zaro hurmat, tushunish va hamkorlikni ta'minlaydi, jamiyatda sog'lom muhit shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev N. "Muloqot madaniyati va kasbiy etika". – T.: TDYU, 2022.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-3, ISSUE-01**

2. Shirinov B. “Kursantlar til kompetensiyasini rivojlantirish metodlari”, // “Pedagogika va psixologiya”, 2022, №2.
3. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2009. 83 b.

